

KITOBXONLIK-KREATIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY MANBAI

Shokirova Dilnoza Ubaydulloyevna

Buxoro davlat universiteti (PHD)

Annotatsiya: kitobxonlik – kreativ tafakkurni shakllantirishning asosiy manbasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Kitob o'qish insonning mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv va yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. Turli janrlardagi adabiyotlar, ilmiy va badiiy kitoblar o'quvchining dunyoqarashi va fikrlash doirasini kengaytiradi. Shu bilan birga, muntazam kitobxonlik o'ziga xos ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarni shakllantirish, tafakkur yuksaltirish va yangi innovatsiyalar yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, kreativ tafakkur, ijodiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, dunyoqarash, innovatsiyalar, madaniy ko'nikmalar, ilmiy va badiiy adabiyot.

Аннотация: чтение книг имеет важное значение как основной источник формирования креативного мышления. Чтение развивает у человека логическое мышление, творческий подход и способность генерировать новые идеи. Различные жанры литературы, научные и художественные книги расширяют кругозор и мышление читателя. Кроме того, регулярное чтение способствует формированию специфических социально-культурных навыков, развитию мышления и служит основой для создания новых инноваций.

Ключевые слова: чтение книг, креативное мышление, творческое мышление, логическое мышление, кругозор, инновации, культурные навыки, научная и художественная литература.

Annotation: reading is of great importance as the main source for developing creative thinking. Reading books enhances a person's logical thinking, creative approach, and ability to generate new ideas. Literature of various genres, scientific and artistic books broaden the reader's worldview and scope of thinking. At the same time, regular reading helps form unique social and cultural skills, elevates thinking, and serves as a foundation for creating new innovations.

Key words: reading, creative thinking, creative approach, logical thinking, worldview, innovations, cultural skills, scientific and artistic literature.

Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi, “insonlarning millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotidan rozi bo'lib yashashi”¹, yurt kelajagi kafolatlanganiga ishonch hosil qilishi davlatimizda olib borilayotgan oqilona va odilona siyosatning bosh maqsadidir. Zero, O'zbekiston, yurtboshimiz e'tirof etganidek, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari jadal harakat

qilmoqda. Davlat va jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalari qancha taraqqiy etsa, insonlarning ilmiy-ma'naviy salohiyati ham shunga mos va mutanosib bo'lishi lozim. Fuqarolarning ilmiy iqtidori, rahbarlik salohiyati, harbiy bilimlari, kasbiy mahorati yuqori saviyada bo'lishi bilan birga, ularning shaxsiy fazilatlari: insoniylik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur tuyg'ulari qanchalik kuchli bo'lsa, davlatimiz poydevori ham, kelajagi ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Mustaqil O'zbekistonimiz bugungi tezkor taraqqiyot davrida har tomonlama eng rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o'rin egallash yo'lidan sobitqadamlik bilan borayotgan bir davrda xalqimizning, shuningdek, kelajagimiz egalari hisoblanmish o'sib kelayotgan yosh avlodning o'z oldiga qo'ygan maqsadi ham shunga mos holatda teran, aniq, xolis va qat'iy bo'lmog'i lozim. Shu bois jamiyatning mazkur talabini – g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan sobitqadam avlodlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun, avvalo, kamolotning dastlabki bosqichi sifatida har bir yoshning shaxs sifatida kamol topishiga zamin tayyorlanadigan ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlar tayyorlash”² maqsadida keyingi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi.

Kitobxonlik – bolada tafakkur jarayonlarini faollashtirish, mantiqiy fikrlash, so'z boyligini oshirish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishda asosiy vositalardan biridir. Bola kitob o'qish orqali nafaqat bilim oladi, balki hayotni anglash, tahlil qilish, baholashni o'rganadi. Shu bois, bolalarda erta yoshdan boshlab kitobxonlik madaniyatini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida insoniyat bir necha mo'jizaviy ne'mat – moddiy va ma'naviy ashyoga ega bo'lgan. Ular: ovoz, nutq, yozuv va kitob. Taraqqiyotning turli bosqichlarida evolyutsion (asta-sekin oddiydan murakkabga tomon borish) asosida insoniyat qo'lga kiritgan bu ashyolar sivilizatsiyaning navbatdagi bosqichi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Agar insoniyat ovoz, nutq va yozuv yordamida o'zaro ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, xohish-istaklarni, intilishlarni bir-biriga bayon qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, kitob vositasida o'z ongini boyitish, nutqi, fikrlash va mantiqiy tafakkur yuritish qobiliyatini rivojlantirishga muvaffaq bo'lgan. Yozuvning paydo bo'lishi va hujjatli manbalarni, ayniqsa, qo'lyozma va keyinchalik bosma kitoblarning ko'payishi kutubxonalarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga sharoit yaratdi. Kutubxonalar yozma yodgorliklarni saqlovchi xazina sifatida juda qadimdan paydo bo'lgan. Markaziy Osiyoda kutubxonalar o'tmishdayoq rivojlangan bo'lib, ular asosan xon saroylari va madrasalar tasarrufida bo'lgan. Mamlakathukmdorlari kutubxonalarning ravnaqi, ularni boyitish, xattotlar bilan ta'minlash sohasida doimiy g'amxo'rlik qilib kelganlar. Qadimgi kutubxonalar orasida eng mashhurlari Aleksandriya (Iskandariya), Buxoro amirligi hamda Bog'dod kutubxonalari bo'lgan. Biroq, XX asrga qadar kutubxonachilik

pedagogikasi u qadar rivojlanmagan edi. Kitobni ulug'lash, bolalar o'rtasida ilm-ma'rifat asoslarini targ'ib qilish maqsadida kutubxona tashkil etishda jadidchilik harakatining vakillari ham ibrat ko'rsatgan. Masalan, namanganlik ma'rifatparvarlardan biri Ishoqxon Ibrat o'z uyida —Kutubxonai Ishoqiya deb nomlangan kutubxona tashkil qilgan. Ushbu kutubxona fondidan o'zbek, rus, turk, tatar, fors-tojik tillarida yaratilgan adabiyotlar o'rin olgan. Ishoqxon Ibratning kutubxonasi nafaqat u o'qitgan o'quvchilarga, shuningdek, qishloq aholisiga ham xizmat qilgan. Kutubxonadagi kitoblar ularning xarakteri, yo'nalishiga ko'ra bir necha bo'limlarga ajratilgan. Xususan, maktab o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'limdan S.Saidazizovning —Ustodi avvall, Abdulla Avloniyning —Birinchi muallim, —Turkiy guliston yoxud axloq, R.Yusufbek hoji o'g'lining —Rahbari hisob kabi darslik va o'quv qo'llanmalari o'rin olgan. Ibrat kutubxonasi doimiy ravishda boyib borgan.

Kitobxonlik inson ongini rivojlantirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi eng samarali vositadir. Bugungi kunda kreativ tafakkur har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun juda zarurdir. Shuning uchun, kitob o'qish jarayoni nafaqat bilim olish balki yangi fikrlarni yaratish va o'zlashtirish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Kitoblar turli sohalarning chuqur bilimini beradi. Ilmiy, badiiy, falsafiy, psixologik asarlar o'qish orqali inson dunyoqarashi kengayadi. Bu yangiliklarga ochiq bo'lish, muammolarga turli burchakdan qarash imkonini yaratadi. Kitob o'qish jarayonida o'quvchi fikrlarni solishtiradi, sabab–natija munosabatlarini aniqlaydi. Bu esa murakkab vaziyatlarda yaxshiroq mantiqiy xulosa chiqarishga yordam beradi, kreativ yondashuvlarni o'ylab topishga asos bo'ladi. Ayniqsa badiiy adabiyot o'qish ijodiy tafakkur uchun juda muhim. Hikoyalar, romanlar o'qish orqali yangi olamlarni tasavvur qilish, mavjud voqealar asosida yangi g'oyalar yaratish mumkinligi ortadi. Kreativlik yangi, ilg'or yechimlarni topishni talab qiladi. Kitoblar yordamida ma'lumotlarning turli manbalari bilan tanishish, ularni integratsiyalash orqali yangi g'oyalar va texnologiyalarni yaratish osonlashadi. Turli madaniyatlar, tarixiy voqealar bilan tanishish insonni jahonqarashli, insofli va ochiq fikrli qiladi. Bu esa jamiyatda kreativ hamkorlik va yangicha yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar hayotimizga keng kirib kelgan bo'lsa-da, kitob o'qish o'rni hech qachon kamaymaydi. Axborotga tezkor kirish imkoniyati mavjud bo'lsa-da, chuqur va sistematik bilim olish, fikrni shakllantirish uchun kitob o'qish zarur. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muntazam kitob o'quvchilar kreativ fikrlashda va muammolarni yechishda ancha muvaffaqiyatli bo'ladi. Kitobxonlik kreativ tafakkur, ijodiy yondashuv va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy manbai hisoblanadi. U orqali inson o'z bilimlarini chuqurlashtiradi, yangi fikrlarni yaratadi va zamonaviy davr talablariga javob

beradigan kreativ odam sifatida shakllanadi. Shunday ekan, kitob o'qish madaniyatini rivojlantirish — har bir jamiyat va shaxs taraqqiyoti uchun muhim va dolzarb vazifa.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Bobomurodova M. – Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida”gi PQ–4861-son qarori, 2019-yil 3-may.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – “Zarafshon”, 2020-yil 30-dekabr.